GCCR

Global Conference on Contemporary Research

GLOBAL CONFERENCE ON CONTEMPORARY RESEARCH



CONFERENCE THEME:

SUSTAINABLE FUTURES:
INNOVATION, DIGITAL TRANSFORMATION AND GLOBAL COLLABORATION THROUGH CONTEMPORARY RESEARCH

INNOVATION | DIGITAL TRANSFORMATION | GLOBAL COLLABORATION | SUSTAINABLE FUTURES

JOURNAL

PEER-REVIEWED PROCEEDINGS

NOVEMBER 2026

TORONTO, CANADA

gccr.academy

Jek london kitoblarini o‘qib

Tadjiyev Xonimqul GulDU
“Ingliz tili va adabiyoti” kafedrasi v.b.prof
Xamdamova Nilufar o‘qituvchi
Qodirqulova Sanam 3-bosqich talabasi

U yosh, tavakkalchi, xayolparast edi.
U shoir va mutafakkir edi.
Unda do‘stlashish dahosi bor edi.
U jondan sevardi, uni ham jondan sevishardi.

-Anna Strinski

Londonning suyuklisi ta’rifi bizga ko‘p narsani bildiradi, to‘g‘rirog‘i bu sarguzasht ishqibozi to‘g‘risidagi fikri tasdig‘i haqidagi har bir so‘zning ma’nosini alohida-alohida o‘ylab ko‘ring: yosh, tavakkalchi, xayolparast, shoir, mutafakkir do‘stlashish dahosi bor.
Jonni Heynoldning bergan ta’rifi ham shunga hamohang:
“U hayot qa’riga (ichiga) o‘ziga xos jasorat bilan, ikkala oyog‘i bilan sakrab, irg‘ib tushdi.Bu sarguzashtlar, go‘zallik olami edi, u, shuningdek, sirlar olami edi; boshqalar u yerda faqat yumush, ish, mehnat bilangina kun ko‘rishardi.’’
Arnold Jentening ta’rifi yuqoridagilarga hamohang jaranglaydi:
“Uning ko‘zlari hayollar to‘la, orzularga g‘arq bo‘lgan, unda ayollarga xos g‘amginlik, ma’yuslik limmo lim edi. Shu bilan birga, undan bu mudhish-dahshatli dunyoda yengilmas jismoniy qudrat, hissiyotlar ufurib turar edi.
Emma Goldmanning quyidagi ikkiligi-kupleti shoir to‘g‘risidagi shoirona misralardan tuzilgan:
Bu yerda yoshlik, mo‘l-ko‘lchilik, titroqli hayot,
Bu yerda o‘rtoqlik, gamxo‘rlik, mehr-muhabbat.

Abstract
Jek London ajabtovur, jahldorgina ham bo‘lib, kitobxonlarni o‘ziga, jalb qiladigan, sarguzasht hikoyalari bilan haqiqiy “san’atkor”-rassom degan sifatiga haqli ravishda qo‘lga kiritgan edi. U olov-o‘tsochar, gohida ijtimoiy adolatsizlikdan nola, hasrat, chekar edi, ko‘ngli to‘lmaslik bilan to‘lib toshib, kundalik turmushda och-yalong‘ochlikni tatib ko‘rgan, Ernest Heminguey aytganidek, “baxtsiz bolalik” tufayli zo‘r yozuvchi bo’la olgan pantyeon (1)-mashhur kishilar dafn etiladigan bino, daxma. 2)-yunon va rimliklarda: barcha xudolarga atab qurilgan ibodatxona; 3)-kitobiy-biror dinga mansub bo‘lgan hamma xudolarning umumiy nomi). London sotsialist , ammo u umrining oxirida, kapitalist (antreprenier -boshqaruvchi) ham edi. Uning o‘limidan oldin kattagina ranchosi ham bor edi. Unda odamlarni oq-qora deb ajratish ham yo‘q emas. U hech qachon go‘dak bolmagan, lekin shu bilan birga u hech qachon katta ham bolmagan. Jeyms L.Haley bir qiziq gap aytgan edi o‘zining “Bo‘ri”, Jek London hayoti kitobida: “ Men u haqida hamma narsa aytilganligiga ishonmayman.”
Londonning yozganlari hali-hanuz, bugun ham ularni o‘qiganlarni befarq qoldirmaydi, hech

kimni loqayd qoldirmaydi. Jek London “Sovuq, kasal, yolg‘iz, ayanchli ahvolda shimolning chidash qiyin sharoitlarni qanday boshidan o‘tkazgan sarguzashtlar kitobxonlarni bugun ham hayratlantiradi” kitobxonni. Aslida Jek London hech qachon bola bo`lmagan, yanada boshqacha aytsak u hech qachon katta ham bo`lmagan. Bu gapni ikki marta aytayapman. Kallani ishlatib, o‘ylab ko‘ring.U baquvvat, harakatchan, qattiq ishlaydigan yozuvchi bo‘lganligini uning avtobiografik romani “Martin Eden”, “Dengiz bo‘risi” va boshqa asarlarini ko‘rgansiz, albatta. Dousan degan joyda u Alyaskaning chegarasida kerak bo‘lsa, shalobbo bo‘lib ham o‘zi niyat qilgan ishdan qaytmaslikksa harakt qilgan. Martin Idenning Rou Morsga bo‘lgan sevgisi uning kitoblarni o‘qishi, o‘qiganda ham ba’zida o‘zi o‘qigan kitoblar ustida uyga ketishi o‘rniga uhlab qolgani bularning hammasi yozuvchining ruhiy qahramonligi, qahramonlari Londonning hayotidan olingan ammo ular shunchaki kitob qahramoni emas, balki hayotdan olingan jonli obrazlardir. Ishonmasangiz “Uch qalb”, “Oydin Vodiy”, Jerry, Maykl-itlar ichidagi romanlarini yana bir o‘qib chiqing.

Kalit so‘zlar: Jack London – “Bo‘ri”, sarguzashttalab, animalist, antreprenier, tillo izlovchi, sayohatchi.

Abstract
Jack London earned his reputation as a true artist of the word. His remarkable and sometimes fierce adventure stories have held readers for more than a century. He had a fiery temperament and often spoke out against social injustice, and he knew hunger and poverty from his own life. Ernest Hemingway called an "unhappy childhood" the best training for a writer, and these hardships helped London enter the pantheon of great writers. The article examines the contradictions in his personality. He was a socialist by conviction, yet by the end of his life he had become an entrepreneur and the owner of a large ranch, and his views were not free of racial prejudice. The article argues that London was never truly a child, yet never fully became an adult. As James L. Haley notes in his biography *Wolf: The Lives of Jack London*, not everything has yet been said about the writer. His stories of a cold, sick and lonely man surviving the harsh conditions of the North still amaze readers. The article analyses the autobiographical novel *Martin Eden*, as well as *The Sea-Wolf*, *Hearts of Three*, *The Valley of the Moon*, *Jerry of the Islands* and *Michael, Brother of Jerry*. The analysis shows that London drew his characters from his own life, including his time in Dawson during the Klondike Gold Rush. Martin Eden's love for Ruth Morse and his relentless self-education are examples. These characters are living images taken from reality rather than mere literary figures, which is why London's works still leave no reader indifferent.

Keywords: Jack London, "Wolf", adventure fiction, animalist, entrepreneur, gold prospector, traveler.

Аннотация
Джек Лондон по праву заслужил репутацию подлинного художника слова. Его удивительные, порой суровые приключенческие рассказы увлекают читателей уже более века. Человек пламенного темперамента, он нередко выступал против социальной несправедливости и на собственном опыте познал голод и нищету. Эрнест Хемингуэй называл «несчастливое детство» лучшей школой для писателя, и именно эти испытания помогли Лондону войти в пантеон великих писателей. В статье рассматриваются противоречия его личности. Социалист по убеждениям, к концу жизни Лондон стал предпринимателем и владельцем крупного ранчо, а его взгляды не были свободны от расовых предубеждений. Автор утверждает, что Лондон никогда по-настоящему не был ребёнком, но так и не стал до конца взрослым. Как отмечает Джеймс Л. Хейли в биографии «Волк: жизни Джека Лондона», о писателе сказано ещё далеко не всё. Рассказы о том, как замёрзший, больной и одинокий человек выживает в суровых условиях Севера, по-прежнему поражают читателя. В статье анализируются автобиографический роман «Мартин Иден», а также «Морской волк», «Сердца трёх», «Лунная долина», «Джерри-островитянин» и «Майкл, брат Джерри». Анализ показывает, что своих героев Лондон взял из собственной жизни, в том числе из пребывания в Доусоне во время Клондайкской золотой лихорадки. Пример тому — любовь Мартина Идена к Руфи Морз и его упорное самообразование. Это не просто книжные персонажи, а живые образы, взятые из действительности, поэтому произведения Лондона и сегодня никого не оставляют равнодушным.

Ключевые слова: Джек Лондон, «Волк», приключенческая литература, анималист, предприниматель, золотоискатель, путешественник.

1897-yilning 14-iyulida “Exselsior” – (ma’nosi- “baland, yuqori”) paraxodi San-Fransisko shahriga (Kaliforniya shtati)ga kirib keldi. U zo‘r yangilik - Kanadaning Yukon, Klondayk rayonida tillo topilganligi haqidagi habarni bu yerdagi bekorchilarga, uncha ishonmaganligini yetkazdi.
Bir vaqtlar Londonning butun badani chandiq (akashak) bo‘lib qolgan, sababi uning jismoniy mehnat bilan tinmay, qattiq ishlagani-bel bilan pechkaga ko‘mir tashlab turgani. Butun hafta tinmay ishlagan. O‘sha kunlari u gazetada bir e’lon o’qib qoldi, ya‘ni gazeta birinchi o‘ringa loyiq topilgan hikoyaga 30 dollar mukofot berilishini habar qilgan edi. Jek Londonning “Yaponiya qirg’og’idagi tayfun”-(kuchli to‘fon) haqidagi hikoyasi birinchi o‘ringa loyiq topildi.
“Excelsior” paraxodi olib kelgan yangilik og‘ir jismoniy ishlardan azbaroyi charchaganlarga ayniqsa yoqdi. Jek London - yosh yigit Yukondagi oltin konlariga borib baxtini sinab ko’rish zarurligini tushunardi. Shuningdek, u yerda, tabiiyki, kutilmagan sarguzashtlar, qiyinchiliklar yuz berishini bilar edi. U yerda katta boylik topish ham ehtimolligini ko‘ngli sezar edi. London qaynsinglisidan unga pul qarz berib turishi yoki berolmasligini aniq bilmas, biroq

so‘ramasa ham bo‘lmas edi. Qaynsinglisining eri ham, yoshi undan ancha katta odam, o‘z omadini sinab ko‘rmoqchi edi.

Jek London butun umr otlarni yaxshi ko‘rgan.

Yukonda Jek London juda qiyin sharoitlarda yashashiga to‘g‘ri keldi.Qayiqda tezoqar, “asov” daryolardan suzib o‘tishga to‘g‘ri kelardi, juda qiyinligini nafaqat bilar,balki ular xavf-xatarga to‘laligini, sharoit juda-juda qiyinligini faraz qilar edi. Oltin topilgan, lekin uni qo‘lga kiritish juda-juda uqubatli ish edi. Lindeman ko’lida London sheriklari bilan qayiq yasaganlari oson ish emas edi, “o‘zi bo‘lmagan”. Odamlar bo’lajak yozuvchining ko‘z o‘ngida g‘arq bo‘lishgan. Bennet va Tagesh ko‘llari keying qiyinchiliklar manbai ularni kutib turardi sal nariroqda, Laberge ko‘lida, ayniqsa, ular “onalarini ko‘rishgan”.

Dousanda tillo qidirishdan hafsalalari pir bo‘lib ortiga qaytayotganlarni uchratishgan. Jek Londonning “Gulxan” , “Hayotga muhabbat” hikoyalaini o‘qigandirsiz. Uning shimol hikoyalari, ayoz, yovvoyi tabiat bo’rilardan qanday himoyalanganlari voqei hikoyalardir.

O‘limidan keyin Jek Londonni bolalar boshidan kechirganlarining hikoyalari yozuvchisi deb ham nomlashdi. Londonning ijtimoiy adolat izlovchisi sifatidagi kayfiyati “Tubsiz jarlik odamlari”, “The People of the Abyss” romanida ko‘rsatilgan.

Jek London – “Bo‘ri” ijodini quyidagi mavzularga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Jek London va Alyaska
2. Jek London va shimol dengizlari
3. Jek London- sotsialist
4. Jek London va ayollar
5. Jek London -anamalist yozuvchi
6. Jek London tanqidchi

Bulardan tashqari Jek London hayotda o‘zining ko‘zlagan maqsadiga yetishish uchun har bir ishni hormay-tolmay bajarishga harakat qilgan. Jumladan, u har kuni yozuvchi bo‘laman degan maqsadda mingta so‘zdan iborat asar parchasini yozgan, oilaviy sharoitini qo‘llab turishga yetadigan pul ishlash maqsadida iloji boricha, kerak bo`lsa har kuni, faqat 4-5 soatgina uhlagan; boshqa vaqtda esa tinimsiz jismoniy mehnat bilan shug‘ullangan; uni odamlar hech qachon mast-alast yurganini ko‘rishmagan. Charmion-uning bevasi 2 jildli “Jek London kitobi” degan asarini unga bag‘ishlagan. Irving Stoun “Egardagi dengizchi” kitobida Londonning hayotini, ijodini yoritga. Uning kitoblari bugun ham kitobxonlarni loqayd qoldirmaydi.

Ayniqsa oxirgi yillarda uning ko‘pgina kitoblari o‘zbek tiliga tarjima qilindi. U doimo o‘z niyatini amalga oshirish uchun qattiq ishlagan. William Cheynie Jek Londonning og‘aynisi bo‘lgan. Jek London ba’zi sohalarda, oqlarni qoralardan yuqori hisoblagan. Nisbatan, qisman bo‘lsa-da, mehnatga yaroqsiz bo`lgan otasi Jek Londonga yordam berishga harakat qilar edi, uning odob-axloqi joyida, sog‘lig‘iga imkon beradigan darajada qattiq ishlashdan charchamagan. Jek London o`gay otasi bilan botqoqlik bo‘yida o‘rdak ovlashga ko‘p borgan. O`n besh yoshli Jek dunyoga bo‘ri ko‘zi bilan qaragan. U hech qachon, hech kimdan, hech narsadan cho`chigan emas. U yoshligidan

boshlaboq qimmatbaho hisoblangan baliqlar turi-ustritsa ovlar, uni sotar, shunga ko‘ra, uni “Устрица qaroqchi-piratlarning shahzodasi” deb atashar edi. Jek London qayiqda suzishni yoqtirar edi. U suvda hayot kechirishdan hech qachon tortinmagan, ustritsa ovlashda esa iloji boricha qonunni buzib qo‘ymaslikka harakat qilar edi. Masalan, u “g‘ira-shira, tong endigina otib kelyotganda matros, albatta, ogoh tortadi”, degan edi. U o‘zining qayiq va kemalarda ov qilishini “Sophia Sutherland”dagi faoliyati unga xos yana bir xususiyat - ochiqko‘ngillik, yaxshi ish qilishga harakat, buning uchun qattiq kurashish xos edi. London hech qachon ikkiyuzlamachilik, g‘irromlik qilmagan. Uning fikricha, u tamomila o‘zini azobga qo`ysa-da, sayohat qilishdan charchamagan. Kanadaliklar bu yigitga yaxshi munosabatda bo`lishgan, chunki u odamlarni hech qachon sen yaxshisan, sen yomonsan deb ajratmagan. London yozishga judayam-judayam qiziqar edi. U eng qiziq masalalarni ko`tarib chiqishni xohlar edi. Bir kuni u 1895-yilning 12-yanvarida chet tili o`qituvchisi - Molli Konnors, Jek London 19 yoshiga kirganida azbaroyi xunob bo`lib yozgan narsalaridan siqilib o`tirganida uning yozganlarini o`qib chiqib “Foydasi yo`q, miss Mollie, men yozishni yig`ishtirb qo`ymoqchiman. Bu yerga ingliz tilini o`rganishga kelgan edim, o‘zimcha yoza olaman deb o`ylagan edim, ammo yoza olmayapman. Mana bunga bir qarang”. Miss Konnors qog’ozni o`qib chiqib uning tuzatilgan joylarini ko`rib so`ng ohistagina, hotirjamlik bilan, qandaydir bir sovuqqonlik bilan unga javob berdi: “Men senga bir sirni aytmoqchiman, hamma muammo shundaki, (yagona qayg’u-alam) shundaki, sen yoza olasan”. Balki uning mana shu daldasi Jek Londonni yozuvchi bo`lishga rag’banlantirib qo`ygandir. O`sha paytlar u maktabda o`qir, lekin hamma ketgandan keyin o`zidan ancha yosh talabalarni kuzatib bo`lgach maktabni supurib-sidirib tozalab ketar edi. Uning yana bir xususiyati, u o`zini ayashni hech qachon xohlamagan. Eski ishchi sinfi va ularning maqtamasa ham bo`ladigan sharoitini yoqtirmagan. U hamma yaxshi yashash kerak deb o`ylar edi. Uning fikricha, odatda, hamma iloji boricha, to`g’ri yo`ldan yursin va shu yo`ldan burilmay ishlasin. Molli Konnors o`sha kuni Londonning aqliy hayotini kelajak uchun, bo`lajak kitobxonlar uchun saqlab qoldi aks holda esa uning “Martin Iden”, “Dengiz bo`ris” kabi romanlari balki yozilmay qolar edi. Yozuvchining “Uch qalb” romani 18-asr oxiri 19-asr boshlarida yashagan Henri, Rayder, Haggard qahramonlarini hayotini astoydil o`rgangan ehtimol uning “Uch qalb” romani balki Rayder ta’sirida yozilgandir. Ba’zi kitobxonlar yozuvchining oliyjanobligini, hech qachon maqtanmasligini maqul hisoblashgan. London o`zining “Martin Iden” romanida tasvirlagan qiz obrazi hayotdan olingan. Uni London sevar edi, uning go`zalligi yigitga go`yo ilhom parisini eslatar edi. U albatta Jek Londonning o`qimaganligiga afsuslanar, ayniqsa, kambag’alligi qizni cho`chitar edi, albatta. Lekin Maybelning onasi Londonni “odamni maftun qiladigan, dono va ishlari, harakatlari hech kimni befarq qoldirmaydigan yigit” ekanligini tushunar edi, biroq baribir u oqsuyak va “Martin Iden”da Ruth Mors obrazida namoyon bo`ladi va uni Jek London katta yozuvchi bo`lib yetishganda Martinning oldiga kelganlari baribir uni oldingiday baholay olmasligiga sabab edi. London o`zi aytishi bo`yicha, u agar oldindagi hayot

shundaygina botqoqlik, do`zox joy bo`ganda ham orqasiga qaytib ketmas edi, zero "Shimolning sharoiti Ssilla va Haribda bo`lsa ham bunda cho`chimasligini bilar edi. Tillo izlab chiqqan Jek London bir yil tsinga kasalligiga uchrab tillo izlovchilar bilan hayot kechirdi va bu hayot judayam-judayam og`ir edi. U narsalarni, odamlarni, dengiz va u yerdagilarni fe'l atvorini yaxshi bilar, lekin shunday sharoit ham uni yo`ldan qaytara olmadi. Bir yildan keyin o`sha yoqlarda sandraqlab, azoblanib qiylanib ko`rgan hayotini siz yozuvchining hayotini "Gulxan" hikoyasida o`qishingiz mumkin.

London ellikka yaqin katt-kichik qissa va romanlar yozdi, hikoyalari esa bugun ham hammani hayratga solidi. U she'rlar yozdi, qofiya va vazn, istiora va fojiali sharoitlarda o`zini qiynab bo`lsa ham esselar qisqa hikoyalar ijod qildi. U shunchalik qattiq ishlar ediki, hali kichkinaligidayoq jismoniy mehnatdan qochmas, kambag'allik nimaligin yaxshi bilar edi. Bu haqida o`zi shunday degan:' "Men sakkiz yoshligimda birinchi marta mayka kiydim, uni univermagdan sotib olgan edim. O`n yoshimda kechasi va ertalab gazetalar sotib yurar, har bir sentning qadrini yaxshi tushunar edim va ularni uyimdagilarga oborib berar edi…

Men konserva zavodida ham ishladim. Men erta bilan soat oltida uyg'onar edim, nonushtaga yarim soat vaqt ketar edi. Har kuni kechasi soat o`ngacha ishlar edim. Ba'zan, kechki ovqatga yarim soatgina vaqt ajratar edim. Soat o`n bir yoki o`n ikkigacha qo`lim ishdan bo`shamas edi, men oladigan oylik maosh pul juda oz edi, yo Xudo men shuncha uzoq vaqt yillar bu haqida o`ylayman, lekin topganim ellik dollargacha zo‘rg‘a yetar edi. Lekin bu topgan pullarim har bir chaqasini uydagilarga oborib berar edim. Ba'zan mashina yonida o`ttiz soatlab qolib ketgan vaqtlarim bo‘lgan va u yerdagi yagona yosh bola men edim. Men kichkina qayiqcha olmoqchi edim, u esa sakkiz dollar turadigan bir kishilik yalik. Shunga pul yig'ar edim. Butun yoz bo‘yi g‘imirlab tirnoqlab pul to‘plar edim. Kuzda men besh dollargina yig'ishga erishdim. Mening onam men ishlayotgan mashina oldiga kelib mendan pul so‘radi. Men o‘sha kechasi uni o‘ldirib qo`yishim hech gap emas edi. Bir yildan so`ng do‘zaxday joyda ishlab topganlarimni mendan "o`g`irlab" olishdi".

Jek London o‘zining yozganlari jurnallar yoki nashriyotlar tomonidan qabul qilinmagan vaqtlardagi ahvoli haqida shunday degan edi: " O`zimda bor narsaning hammasini garovga qo`ydim. Men uchun yeb-ichish degan zarur narsalar yo`q edi go‘yo. Mening tobim yo‘q, aqlan va jismonan kasal edim, yetarlicha yeguligim bo‘lmagani sababli… mening ahvolim judayam nochor edi. Meni go‘yo oyoq-qo‘limni bog`lab qo`yishgan edi, urib dabdalamni chiqarishgan edi go`yo, qornim och, buning ustiga kun bo`yi pechkaga ko‘mir tashlashga borishga tayyorman, bu esa, o‘z jonimga qasd qilishdek gap edi… men bir marta bir jurnalning yakshanba kungi ilovasida Mingta so‘zli hikoyaga jurnallar o‘n dollar berishlarini o`qigan edim. Biroq men jurnal dalilarini astoydil ishonishimga qaramay mening qo`l yozmalarimni noshirlar o‘zimga qaytarib berishardi. Lekin shunga qaramay, men haliyam ishonchimni yo`qotganim yo`q, yakshanba ilovasida o‘qigan ko`zda tutilgan ilovaga men baribir ishonar edim, umidim hali so`nmagan edi, ammo men qisqa hikoyam "Qora mushuk"ni yozdim. London

boshqalar bilan muloqotga kirishishdan hech qachon tortinmagan. Shuning uchun Nyu York adresida “Bleker ko‘chasidagi 63-uyda men kabi yozuvchilar uchun u joy Makkaga o`xshagan joy edi.” Alyaska haqidagi hikoyalar Brettning Londonga yozgan xatida “judayam zo`r ish va bu suv bilan bogliq sharoitda amalga oshgan”. Agar London qo`l yozmalarini ko‘rsata olsa, Brett uning qo‘l-yozmalarini nashrdan chiqarmoqchi edi. London o‘sha yerning o‘zidayoq xushmuomalalik bilan “mening romanim bor, lekin “Mc Clure, Phillips and Ko” uni bosib chiqarishi kerak. Bulardan tashqari mening yana Klondayk haqidagi qisqa hikoyalarim ham chop etilish arafasida. Mening asarimning qirq ming so‘zlik qismi yozilgan yana balki o`n besh-yigirma ming so‘zlik matn qo‘sharman bu seriyalarga va ularni umumiy sarlavhasini “Frostning bolalari” deb atayman”. Agar Brett ularni ko`rishni xohlasa, men ularni unga jo‘natishdan baxtli bo‘lar edim. Yana bir kitob “The Kempton-Ways Letters” kitobim ham deyarli tayyor.

London Angliyaga ishchilar, kambag‘allar hayotini tasvirlash uchun kitob yozish maqsadida Londonga bordi va 1900-yilda Jorj Hovning “Tiqilinch London” degan shartlarini va ulardagi shartlarni kambag‘allar qanchalik qabul qilish masalasini ko‘tarib chiqdi. O‘zining uzun xatining qolgan qismi bizga unchalik ahamiyatli emas edi, agar uni Bretning xatiga qiyoslanmasa, biroq uning shakl va og‘irligi haliyam ochiq oydin bilinib turadi.

Jek Londonning shikoyati bevosita Britaniya kambag‘allariga taalluqli.

Jek London – muallif, tinmay sarguzasht qidiradigan va adabiyotga mubtalo bo‘lgan ham undan kam qiziqmaydigan yozuvchi, ellikdan ortiq kitob yozgan, ular orasida eng mashhuri “Oq so‘yloq”, “Dengiz bo‘risi”, “Martin Iden”, “Avlodlar qichqirig‘i” va ularda tasvirlanga. favqulodda hayot tarsi bizni ham qiziqtiradi, albatta. Uning mavzulari dengiz, oltin qidiruvchilr, sarguzashttalab odamlar. Uning yoshligi qiyinchiliklar bilan o‘tdi, yoshlik vaqtidan boshlaboq u o‘zi topgan jismoniy ishdan bosh tortmadi, ochlik yoki charchaganlik unga bahona bo‘lmadi, u sarguzasht qidirardi lekin uning eng yaxshi ko‘rgan joyi kutubxonalar edi. O`sha yerdagi kitoblarning afsonaviy tasviri uni ayniqsa qiziqtirardi. Klondayk, shimol, favqulodda sovuq unaqa sharoitlarni juda qiyin sarguzashtlar ostida boshidan o`tkazdi. Yozuvchining “Oq so‘yloq”, “Avlodlar qichqirig‘i” kitoblarini mana shu aytgan mavzular tashkil qiladi. London dengiz, okeanlarda qimmatbaho baliqlar ovlab ularni pullar, lekin eng qizig‘i, topgan har bir chaqasigacha ota-onasiga oborib bergan. Qiyinchiliklar, dengizdagi hayot, u yerdagi janjal urushlar yozuvchining “Dengiz bo‘risi” asarida hikoya qilinadi. U kambag‘allik, bolalar mehnati, ishsizlik, qamoq kabi narsalarni boshidan o`tkazdi, ammo falsafa bilan adabiyotga butun borlig`i bilan berilib o`qidi va uning yozgan asarlarida o‘qiganlari o`z aksini topdi. Hayotdagi sayohatlari uni yigirmanchi asrning eng qimmat yozuvchilardan biriga aylantirdi. Bularning hammasi qirq yoshida vafot etgan yozuvchi uchun uning sog‘lig‘iga halokatli ta’sir ko‘rsatgan va shu bois u qirq yoshida o‘z joniga qasd qildi. Uning, ayniqsa, Alyaskada, Tinch okeanida boshidan o‘tkazgan qiyinchiliklari hikoyalari,

son-sanoqsiz esselarida, jurnalistik yozuvlarida uni nafaqat Amerika, balki butun dunyoda sevib o‘qishlariga sabab. Xemengueyning bitta gapi qiziq va buni eslab qolishimiz kerak:”Men, yaxshisi, chang mas balki kul bo`lishni ma’qul ko`raman” bu gapning ma’nosini esa siz bilan biz bu gapning davomidan topsak bo‘ladi. “Men, yaxshisi, uchqun bo‘lib, charaqlab nur taratishni yaxshi ko‘raman. Tutun bo‘lib, ko‘zni achitib yonganidan ko‘ra”. Yozuvchining keying gapi ham e’tiborga loyiq “Odamning haqiqiy vazifasi yashash, shunchaki mavjud bo‘lish emas. Men butun kunlarimni shunga bag‘ishlayman va men vaqtimni behuda o‘tkazmayman”. Londonning qahramonlari o‘zlarining hayotini saqlab qolish uchun kurashadilar va tabiat bilan undagi qonunlarga qarshi chiqmaydilar “Oq so‘yloq”dagi bo‘ri-it, “Dengiz bo‘risi”dagi Wulf Larsen, Martin Iden qiyinchiliklar qarshisida ortga chekinmadilar. Biz yuqorida tilga olgan romanlar dunyoning uzoq burchaklarini tasvirlaydi. Jamiyat dengiz kapitaniga tabiatning kuchini ko‘rsatar edi, uning qahramonlari ayoz, hayotga befarq munosabatda bo‘lish kabi xususiyatlarni yoqtirmas edilar. Ular svilizatsiyaning o‘zlarining yuragida insoniy sevgisi va oliyjanobligida davom etishini istardilar. Uning qahramonlari boshidan o‘tkazgan qiyinchiliklar siz bilan bizni hech qachon befarq qoldirmaydi. Bo‘ri-itlarning yovvoyi hayotdagi turmushi tilla qidiruvchilarning Kanada shimolidagi hayoti yashash uchun kurashuvchilar muz bilan qoplangan manzaralarda o‘zlarining qahramonliklarini ko‘rsatdilar. London yurgan yo‘lida, albatta, qahrli munosabatlarini ko‘p ko‘rdi, dahshatlarni boshdan kechirdi, lekin undagi xayrixohlik, oliyjanoblik, tabiatga muhabbat siz bilan bizni hozir ham qoyil qoldiradi.

Adabiyotlar

1. *Haley, James (2011). Wolf: The Lives of Jack London. Basic Books. pp. 12–14. ISBN 978-0465025039.*
2. Charmian K. London (August 1, 1922). "The First Story Written for Publication". Sonoma County, California: JackLondons.net. Archived from the original on October 6, 2013.
3. "The 100 best novels: No 35 – The Call of the Wild by Jack London (1903)" Retrieved July 22, 2015
4. Stasz, Clarice (2013). Jack London's Women. University of Massachusetts Press. p. 102. ISBN 978-1625340658. Retrieved July 8, 2019.
5. London, Charmian, Our Hawaii: Islands and Islanders, Macmillan, 1922, p. 24. *London, Charmian (2003) [1921]. The Book of Jack London, Volume II. Kessinger. ISBN 0766161889.*
6. London, Joan (1939). Jack London and His Times. New York: Doubleday, Doran & Company, Inc. LCCN 39-33408.

7. Stasz, Clarice (2001). Jack London's Women. Amherst, MA: University of Massachusetts Press. ISBN 1558493018.
8. Haley, James L. (2010). Wolf: The Lives of Jack London. New York: Basic Books. ISBN 978-0465004782.
9. *London, Jack; Strunsky, Anna (2000) [1903]. The Kempton-Wace Letters. Czech Republic: Triality. ISBN 8090187684.*
10. *Williams, Jay, ed. (2017). The Oxford Handbook of Jack London. Oxford Univ. Press.*